

SUV OMBORLARIDAN FOYDALANISHDA YER TUZISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

Shukurova Nargiza Olimovna

Qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotasiya: Maqolada suv omborlaridan fodalanishda yer tuzish ishlari, suv omborining ta'sir mintaqasi uchun xo'jaliklararo yer tuzish loyihasi tartibi va bu bo'yicha qanday ishlar olib borilishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: suv ombori, xo'jaliklararo yer tuzish, suv bosadigan mintaq, suv omborining ta'sir mintaqasi, injenerlik muhofaza.

Mavzu dolzarbligi: Dunyo bo'ylab hozirgi globallashuv jarayonida suv va suv manbalarini resurslarini barqaror boshqarish va ulardan oqilona tarzda foydalanishni ta'minlash masalasi butun boshli mintaqalar va mamlakatlarning barqaror iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biriga aylandi. Mazkur masala suv resurslari cheklangan, iqtisodiyoti va aholisi tez o'sib borayotgan (demak, suvga bo'lgan talabi ortib borayotgan), iqlim o'zgarishi ta'sirlari tobora ko'proq sezilayotgan (ya'ni suv bilan ta'minlanish sharoiti murakkabroq bo'lgan) Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik realliklar sharoitida o'ta dolzarb va yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Cheklangan suv resurslaridan ham iqtisodiy va ham ekologik talablar barqarorligini ta'minlagan holda foydalanish samaradorligini oshirish zamonning dolzarb muammosidir [1].

Ma'lumki, qadim zamonlardan buyon insonlar suv manbalariga yaqin joylarda istiqomat qilib kelishgan. Ular suvdan ichimlik manbayi sifatida foydalangan bo'lsa, ozuqa manbasi sifatida baliqlarni ovlaganlar, shu bilan birga suv yo'llari orqali savdo-sotiq ishlarini ham amalga oshirganlar. Tadqiqotchi T.A.Abdimominov, S.O.Bozorov, A.Yu.Rakhmatovlarning fikriga ko'ra, suv kamroq va taqchilroq bo'lgan hududlarda hayot kechiradigan insonlar uchun suv manbayining asosiy qismi sifatida daryo va yer osti suvlari xizmat qilgan [2]. Insoniyat uchun suv asosiy hayot manbayi bo'lganligi sababli bugungi kunda asosiy e'tibor suv manbaalaridan oqilona va samarali foydalanishga qaratilmoqda. Iqlimi quruq hisoblangan hududlardan oqib o'tuvchi daryolar hamda soylarning suvidan oqilona foydalanish uchun suv omborlarini barpo qilishga alohida e'tibor qaratilgan.


Asosiy qism: Suv ombori – sun'iy suv havzasi, u daryo vodiysida suv sarfini suvdan foydalanuvchilarning talablariga muvofiq qayta taqsimlash maqsadida suvtirgak inshoot bilan tashkil qilinadi [3].

Ma'lumki suv omborlari qurish va loyihalashda bir qancha normativ huquqiy hujjatlarga asosan olib borilishi belgilangan. Xususan, yer tuzish loyiha ishlarini

amalga oshirishda suv omborining asosiy o'lchamlari, suv yuzasi maydoni, chuqurligi, kengligi, uzunligi, suvlarning sathi, suvlarning hajmiga alohida e'tibor berib yer tuzish loyiha ishlari amalga oshiriladi. Suv omborini qurish bilan bog'liq xo'jalik faoliyatida bo'ladigan salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida maxsus tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Ular jumlasiga suv tagida qoladigan yerlar maydonini aniqlash, injenerlik himoya, yo'qotiladigan qimmatbaho yer turlari o'rnini qoplash yo'llarini izlash, aholini ko'chirish, korxonalar, inshootlar va injenerlik tarmoqlarini yangi yerlarga ko'chirish, qishloq xo'jalik korxonalari hududini va ishlab chiqarishni qayta tashkil etish kiradi.

Ma'lumki, xo'jaliklararo yer tuzish, suv ombori qurilishi sababli, yerni tarmoqlararo qayta taqsimlash ishlarini va qurilishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham, gidrotexnik inshootlarni joylashtirish va ularning o'lchamlarini ko'rsatuvchi loyiha oldi hujjatlari tarkibida xo'jaliklararo yer tuzish bo'limi ham ishlanadi.

Yer tuzish loyihasini ishlab chiqish uchun topshiriq quyidagi boshlang'ich ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak (1-rasm):



1-rasm. Yer tuzish loyihasini ishlab chiqish uchun kerakli boshlang'ich ma'lumotlar

Suv bosadigan mintaqa - bu doimiy yoki mavsumiy suv tagida qoladigan yerlar. Bu yerlardan qishloq xo'jaligi yoki boshqa maqsadlarda foydalanish umuman mumkin emas. Bu mintaqaning chegarasi suv ombori to'g'onining yuqori byefi sathi bilan belgilanadi.

Yer osti suvlari sathi ko'tariladigan mintaq - suv ombori tevaragidagi yerlar bo'lib, bu yerlarda sizot suvlari sathi keskin ko'tarilishi natijasida yerdan foydalanish

sharoiti o'zgaradi. Sizot suvlarining ko'tarilishi tuproq namligining oshishiga, ayrim hollarda esa botqoqlanishga olib keladi. Natijada bu yerlar dehqonchilik va bog'dorchilik uchun foydalanishga yaroqsiz holga keladi, yaylov o'simliklarining tarkibi va sifati yomonlashadi, binolarning cho'kishi, devorlarning yorilishi va boshqa salbiy oqibatlar kuzatiladi.

Sizot suvlari sathi ko'tariladigan yerlarning loyihaviy chegaralari suv bilan qoplanadigan mintaqaga chegaralari sathidan haydalma yerlar, yaylovlar va pichanzorlar uchun 1 metrdan, qishloqlar uchun 2 metrdan va shaharlar uchun 3 metrdan yuqori qilib belgilanadi. Loyihalash amaliyotida sizot suvlari sathi ko'tariladigan maydonlarning 20% kuchli, 35% - o'rta va 45% kuchsiz ko'tariladi deb hisoblash qabul qilingan.

Qirg'oqlarning qayta shakllanish mintaqasi - suv omborining nurash, yuvilish va shamoldagi suv to'liqlari ta'sirlari natijasida o'zgarib turuvchi qirg'oq polosasi hisoblanadi. Loyihalash jarayonida tik, suv to'liqlari bo'lib turadigan qirg'oqlar atrofida 100 metrlik chiziqli tarzda belgilanadi.

Suv omborining suv bosadigan qismida ham o'zgarishlar bo'lib turadi, ya'ni suv bosadigan o'tloqlar maydonlari qisqarishi, qirg'oqlar atrofidagi yer polosalarini vaqti-vaqti bilan suv bosishi hollari yuz beradi. Bularning hammasi loyihalashda hisobga olinadi. Yirik suv omborlari loyihalarini ishlashda qator loyiha tashkilotlari qatnashadi. Loyihalarni tuzish jarayoni bir necha bosqichda olib borilib, loyiha oldi va loyihalash ishlaridan tashkil topadi. Xo'jaliklararo yer tuzish masalalari suv ombori to'g'onini loyihalash bosqichlarini hisobga olgan holda yechiladi.

Suv omborining ta'siri mintaqasi uchun xo'jaliklararo yer tuzish loyihasi quyidagi tartibda tuziladi(2-rasm).



2-rasm. Suv omborining ta'sir mintaqasi uchun xo'jaliklararo yer tuzish loyihasi tartibi

1. Suv omborining va to'g'on qurilishining ta'siri mintaqasiga kiruvchi barcha yerlarning joylashishi, suv bosadigan, sizot suvlari sathi ko'tariladigan, sayoz suvli mintaqalar, qurilish maydonlari va shunga o'xshash tumanlar va xo'jaliklar bo'yicha chegaralari belgilanadi. Ajratilgan yerning asosiy qismini tashkil qiladigan suv omborining o'zini joylashtirish, suv bilan qoplanadigan mintaqa chegaralariga qarab amalga oshiriladi va 1:25000 yoki 1:10000 masshtablardagi loyiha xaritasida ko'rsatiladi. Bu planda suv ombori va GES qurilishlari uchun ajratiladigan yerlar ko'rsatiladi va suv ombori ichida hosil bo'ladigan orollar aniqlanib, ulardan foydalanish yo'llari belgilanadi.

2. Ajratiladigan yerlar chegaralari aniqlangandan keyin ularning maydonlari hisoblanadi va har bir viloyat, tuman suv ombori, yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yerlar eksplikatsiyasi tuziladi.

3. Loyiha chizmasida qishloq xo'jalik korxonalari yerlaridan chiqariladigan, sizot suvlari sathi ko'tariladigan mintaqa chegaralari ham ko'rsatiladi. Bu mintaqa yerlarida qurilish ishlarini olib borish, loyiha bo'yicha belgilangan yerdan foydalanish turini o'zgartirish mumkin emas. Har bir xo'jalik bo'yicha sizot suvi sathi ko'tariladigan yerlar maydoni aniqlanib, yerlar eksplikatsiyasi tuziladi.

4. Keyin yer ajratish bilan bog'liq bir qator ahamiyatli masalalar yechiladi. Ular jumlasiga: suv bosishi, sizot suvi sathi ko'tarilishi, qirg'oqlar yemirilishi, yer surilishi, sanitariya holatining yomonlashishi va boshqa tashkiliy-xo'jalik sabablariga ko'ra foydalanish mumkin bo'lmaydigan yoki o'zining xo'jalik uchun ahamiyatini yo'qotgan qishloqlar, ishlab chiqarish markazlari, yo'llar, ko'priklar, aloqa tarmoqlari va boshqalar aniqlanadi; ayrim obyektlarni muhofaza qilish zarurati aniqlanadi.

Suv bilan qoplanadigan mintaqaning sayoz joylari chegaralari belgilanadi va ularning maydonlari aniqlanadi. Ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish masalalari va injenerlik muhofazasi masalalari yechiladi.

Injenerlik muhofaza - bu har xil injenerlik inshootlari yordamida qishloqlarni, korxonalarni, dalalarni, bog'larni va boshqa foydalaniladigan yerlarni suv bosishidan, sizot suvlari sathi ko'tarilishidan, qirg'oqlar yemirilishidan muhofaza qilishdir. Muhofaza qilinadigan hududlarda ortiqcha suvlarni chiqarib yuborish tadbirlari (zovur-drenajlar yordamida) amalga oshiriladi.

Injenerlik muhofazasi ancha kapital xarajatlarni talab etadi. Shunga qaramasdan, bu usul qishloqlarni, korxonalarni va boshqa obyektlarni ko'chirishga nisbatan ancha ustunlik va qulayliklarga ega. Ayrim hollarda esa injenerlik muhofazasi masalani yechishning yagona yo'li bo'lishi ham mumkin. Ayniqsa qimmatbaho yer turlarini, noyob obyektlarni, qazilma boyliklarni saqlash zarurati tug'ilganda, bu usul yagona hisoblanadi.

5. Unumdor yerlarning maydoni va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining hajmi qisqarishi natijasida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi zararlarining miqdori va ularni qoplash yo'llari aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik yerlari maydonlarini va mahsulot ishlab chiqarish hajmini qoplash maqsadida o'zlashtirish uchun yaroqli yangi yerlar izlanadi, yoki sug'orish, zaxini qochirish va boshqa tadbirlar yordamida kam unumli yer turlarining sifati yaxshilanadi. Bunda o'zlashtiriladigan yerlar olinadigan yerlardan kam bo'lmasligi kerak. Iloji boricha ularning maydonini kengaytirish uchun hududiy sharoit yaratish kerak. Bunda yerlarning sifati hisobga olinadi.

6. Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar ko'radigan zarar miqdori ham aniqlanadi. Bu zarar korxonalar va tashkilotlar, dehqonlar, ishchilar va xizmatchilarning suv bosishi va sizot suvlari sathi ko'tarilishi natijasida ko'radigan zararlarini o'z ichiga oladi. Hamma zararlar miqdori, ularni qoplash hamda aholini ko'chirish bilan bog'liq xarajatlar aniqlanadi

7. Suv bosadigan yerlarning ustki unumdor qatlamini qirqib olish, saqlash va undan foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlanadi. Bu takliflarni amalga oshirish uchun ishchi loyihalar ishlanadi.

8. Yangi obyektga yerlarni berishning asosiy shartlari bo'yicha tavsiyalar tayyorlanadi. Bu tavsiyalar buzilgan transport aloqalarini tiklash, tabiiy resurslarni va atrof-muhitni, madaniy va tarixiy obidalarini muhofaza qilish, suv ombori suv resurslaridan foydalanish tartibini belgilash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Suv ombori qurilishi mintaqasiga tushgan xo'jaliklar hududlarini, aholi tizimini va ishlab chiqarishini qayta tashkil etish bo'yicha tavsiyalar tayyorlanadi. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur xarajatlar miqdori aniqlanadi. Bunda qishloq xo'jalik yerlarini va qishloqlarni suv bosishi, sizot suvlari sathi ko'tarilishi, xo'jaliklar yerlarining bo'linib qolishlari hisobga olinadi.

Xulosa: Suv omborlarini barpo etishda yer tuzish ishlari aniq rejalashtirish samarali boshqaruv va ekologik xavfsizlikni ta'minlashni talab qiladi. Yerning tabiiy-geologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, zarur infratuzilmani tashkil etish va yer resurslaridan oqilona foydalanish qurilish jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ekologik muvozanatni saqlash va qishloq xo'jaligiga moslashuvchanlikni hisobga olish muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan yer tuzish ishlari suv omborlarining barqaror ishlashi va hududning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salohiddinov A.T., Ashirova O.A. "Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish". // O'quv qo'llanma. Toshkent. TIQXMMI. 2020. – 216 b.

2. Abdimominov T.A, Bozorov S.O, Rakhmatov A.Y. Water reservoirs and prospects for their use (example of oktepa water reservoir) // Экономика и социум. 2020. 19-23 b.
3. Abdullayev T.M, Inamov A.N, Lapasov.J.O “Injenerlik geodeziyasi” fanidan “Gidrotexnika inshootlarini qurishda geodezik ishlar” // O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2019-yil - 352 b.